XORAZM VILOYATI HAZORASP TUMANI HOKIMINING QARORI

Hazorasp tumani, E.Gayazov ko‘chasi, 32-uy

2022 - yil 30 - sentabr 410-12-174-Q/22 Hazorasp tuman hokimligi

Uy va turar joyning yig‘ma jildidan olingan ma'lumotlar ayrim turlaridan ko‘chirmalar va nusxalar berish tartibi to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Davlat xizmatlari ko‘rsatish milliy tizimini jadal rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» 2020 yil 31 yanvardagi PF-5930-son farmoni, Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 2 sentyabrdagi 535-son qarorlariga asosani Kadastr sohasida ayrim davlat xizmatlari ko‘rsatishning ma'muriy reglamentlarini tasdiqlash to‘g‘risidagi qaroriga asosan

QAROR QILAMAN:

1. Kadastr (yig‘majildi) pasporti yo‘qolganda (yaroqsiz holga kelganda), qog‘oz yoki plastik shaklda yangi kadastr pasporti ikki ish kuni mobaynida beriladi.

2. Davlat kadastrlari palatasi Hazorasp tumani filiali (X.Sadullayev) ushbu qaror bilan tasdiqlangan “Noturar va turar joyning yig‘ma jildidan olingan ma'lumotlar ayrim turlaridan ko‘chirmalar va nusxalar berish tartibi” asosida ish yuritilishini ta'minlasin.

3. Tuman hokimligi matbuot kotibi (J.Usmanova) mazkur qarorni Hazoraspnoma gazetasida rasman e'lon qilsin va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirsin, ushbu qaror rasman e'lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

4. Mazkur qaror ijrosining nazorati tuman hokimining birinchi o‘rinbosari J.Ro’zimov zimmasiga yuklatilsin

Туман ҳокими **У.Машарипов**

Hazorasp tuman hokimining
2022 yil 30 sentabrdagi
410-12-174-Q/22-son qaroriga
1-ilova

Uy va turar joyning Kadastr (yig‘majildi) pasporti yo‘qolganda (yaroqsiz holga kelganda), ma'lumotlar ayrim turlaridan ko‘chirmalar va nusxalar berish tartibi

1.Uy va turar joyning yig‘ma jildi uy yoki turar joy foydalanishga qabul qilinib olinayotganda yoxud turar joy uy-joy fondiga kiritilayotganda tuziladi.

Keyingi texnik hisobga olish uylar va turar joylarni vaqti-vaqti bilan rejali xatlashlar o‘tkazish yo‘li bilan besh yilda kamida bir marta, shuningdek rejadan tashqari tekshirishlar jarayonida hisobga olish ko‘rsatkichlari o‘zgarishlari aniqlanishiga qarab amalga oshiriladi.

2.Uy va turar joyning inventar yig‘ma jildidan olingan ma'lumotlar ayrim turlaridan ko‘chirmalar va nusxalar mustaqil hujjatlarni tashkil etadi.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Davlat xizmatlari ko‘rsatish milliy tizimini jadal rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» 2020 yil 31 yanvardagi PF-5930-son Farmoniga muvofiq kadastr sohasida davlat xizmatlari ko‘rsatish tizimini yanada takomillashtirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi: Kadastr (yig‘majildi) pasporti yo‘qolganda (yaroqsiz holga kelganda), qog‘oz yoki plastik shaklda yangi kadastr pasporti ikki ish kuni mobaynida beriladi. Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 2 sentyabrdagi 535-son qaroriga Ko‘chmas mulk ob'ektiga kadastr pasportini berish bo‘yicha davlat xizmatlari ko‘rsatishning ma'muriy reglamenti.

Uy-joy fondi inson yashashi uchun yaroqli bo‘lgan turar joydan, shu jumladan, uylar, kvartiralar, xizmat turar joylari, maxsus uylar, (yotoqxonalar, vaqtinchalik uy- joy fondi uylari, nogironlar, faxriylar, yolg‘iz qariyalar, internat -uylar, shuningdek bolalar uylari va va boshqa maxsus maqsadli uylar)dan iborat bo‘lgan fond.

4.Uy-joy fondini hisobga olish yig‘ma jildi, ro‘yxatdan o‘tkazish daftarlari, hujjatlar yig‘ma jildida shakllangan ro‘yxatdan o‘tkazilgan hujjatlarning nusxalari, boshqa inventarizatsiya hujjatlari Davlat kadastrlari palatasi Xorazm viloyat boshqarmasining Hazorasp tuman filiali arxivida saqlanadi.

5.Uy va turar joyning yig‘ma jildidan olingan ma'lumotlar ayrim turlaridan ko‘chirmalar va nusxalar berish uchun yuridik va jismoniy shaxslar yoki ularning ishonchli vakillari DXM orqali murojaat qilib Kadastr (yig‘majildi) pasporti yo‘qolganda (yaroqsiz holga kelganda), qog‘oz yoki plastik shaklda yangi kadastr pasporti ikki ish kuni mobaynida beriladi.

6.Arizalar DXMga tomonidan qabul qilib olinadi va shu Kadastr (yig‘majildi) pasporti yo‘qolganda (yaroqsiz holga kelganda), qog‘oz yoki plastik shaklda yangi kadastr pasporti ikki ish kuni mobaynida beriladi.

7.Yuridik va jismoniy shaxslar yoki ularning ishonchli vakillari uy va turar joyning inventar yig‘ma jildidan olingan ma'lumotlar ayrim turlaridan ko‘chirmalar va nusxalar berish uchun tuman yer tuzish va ko‘chmas mulk kadastri davlat korxonasiga telekommunikatsiya

kanallari orqali elektron hujjat koʻrinishida ariza berishlari mumkin.

8. Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 2 sentyabrdagi 535-son qaroriga

Koʻchmas mulk ob'ektiga kadastr pasportini berish boʻyicha davlat xizmatlari koʻrsatishning **MAЪMURIY REGLAMENTI**

Kadastr (yigʻma jildi) pasporti yoʻqolganda (yaroqsiz holga kelganda), qogʻoz yoki plastik shaklda yangi kadastr pasporti ikki ish kuni mobaynida beriladi.